

Annotatsiya. *Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga , avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi.*

Annotation. *All the good qualities are entered for the human hearth with mother lullaby and unique charm of mother tongue.*

Аннотация: *Все хорошие качества впитываются в сердце человека, прежде всего неповторимым очарованием родного языка.*

Kalit soʻzlar: *Til, millat ruhi, tilga eʼtibor, milliy til.*

Key words: *language the spirit of the nation , attention to the language , national language.*

Ключевые слова: *Язык, национальный дух, внимание к языку, национальный язык.*

*“Dunyoda millatning borligini bildiradigan
oynai hayoti –bu uning tili va adabiyotidir”*

(Abdulla Avloniy)

Maʼlumki , oʻzlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar oʻrtasidagi ruhiy –maʼnaviy bogʻliqlik til orqali namoyon boʻladi .Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo , ona allasi , ona tilining betakror jozibasi bilan singadi.

Haqiqatdan ham Ona tili –bu millatning ruhidir. Buyuk maʼrifatparvar bobomiz Abdulla Avloniyning soʻzlari bilan aytganda , “Har bir millatning dunyoda borligʻini koʻrsatadigan oynai hayoti til va adabiyotdur.Milliy tilni yoʻqotmak millatning ruhini yoʻqotmakur”.

Bu haqida gapirganda , mustaqillik arafasida oʻzbek tiliga davlat tili maqomini berish masalasida qanday qizgʻin , baʼzida keskin va murossasiz bahs va tortishuvlar boʻlib oʻtgani beixtiyor yodimizga tushadi. Oʻshanda ayrim siyosiy guruhlar Oʻzbekiston sharoitiga mutlaqo toʻgʻri kelmaydigan , bir-biriga butunlay zid va qarama-qarshi fikrlarni olgʻa surgan , shuning hisobidan oʻziga obroʻ topish , odamlarni ortidan ergashtirishga uringan edi. Nega deganda ,til bilan bogʻlik muommolar orqali milliy tuygʻularni roʻkach qilib, ulardan gʻarazli maqadlarda foydalanish mumkin.

Avvalo , respublika Oliy Kengashi qoshida davlat tili boʻyicha ,taniqli olimlar,ijodkor ziyolilar ,jurnalistlar va jamoatchilik vakillaridan iborat maxsus komissiya tashkil qilindi.

Nihoyat ,1989-yilning 19-oktabr kuni bu oʻta muhim masala Oliy Kengash sessiyasi muhokamasiga qoʻyildi. Va qariyb bir yarim asrlik qaramlikdan soʻng mamlakatimizda oʻzbek tili davlat tili davlat tili deb eʼlon qilindi. Xalqimizning muqaddas qadriyatlaridan biri boʻlmish ona tilimiz oʻzining qonuniy maqomi va himoyasiga ega boʻldi . Bu Vatanimiz tarixida tom maʼnodagi buyuk voqea edi.

Qabu qilingan qonunda davlat tili bilan birga yurtimizdagi barcha millat va elatlarning tillarini rivojlantirish davlat yili bilan himoya qilish , tili , dini, va millatidan qatʼi nazar , har

bir fuqaroning o'z ona tilida ta'lim, axborot kerakli ma'lumot olish kabi huquqlarini kafolatlash masalalari aniq belgilab qo'yilgan edi. Bu qonun o'sha paytda boshqa respublikalarda qabul qilingan tilga oid hujjatlardan o'zining demokratik mohiyati bilan ajralib turadishini alohida ta'kidlash lozim.

O'tgan davr mobaynida davlat tilining hayotimizdagi o'rni va ta'sirini kuchaytirish, uni tom ma'nodagi milliy qadriyatiga aylantirish yo'lida ilgari tasavvur ham qilib bo'lmaydigan ulkan ishlar amalga oshirildi.

Istiqlol yillarida o'zbek tilining qo'llanishi doirasi amalda nihoyatda kengaygani, uni ilmiy asosda rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar, tilimizning o'ziga xos xususiyatlari bag'ishlangan ilmiy va ommabop kitoblar, o'quv qo'llanmalari yangi-yangi lug'atlar ko'plab chop etilayotganligi jamiyat tafakkurini yuksaltirishga o'z hissasini qo'shmoqda.

Ayni vaqtda jamiyatimizda til madaniyatini oshirish borasida hali ko'p ish qilishimiz lozimligini ham unutmasligimiz lozim. Ayniqsa, ba'zan rasmiy muloqatlarda ham adabiy til qoidalariga rioya qilmaslik, ma'lum bir hudud doirasida ishlatiladigan sheva elementlarini qo'shib gapirish holatlari uchrab turishi bu masalalarning ham hali- hanuz dolzarb bo'ib qolayotganini ko'rsatadi. Bu haqida so'z yuritganda Alisher Navoiyning :

“Tilga e'tiborsiz –elga e'tiborsiz” degan so'zlarida naqadar chuqur hayotiy haqiqat mujassam ekaniga yana bir bor ishonch hosil qilamiz.

Dunyodagi qadimiy va boy tillardan biri bo'lgan o'zbek tili xalqimiz uchun milliy o'zligimiz va mustaqil davlatchiligimiz timsoli, bebaho ma'naviy boylik, buyuk, qadriyatdir. Kimda-kim o'zbek tilining bor latofatini, jozibasi va ta'sir kuchini, cheksiz imkoniyatlarini his qilmoqchi bo'lsa, munis onalarimizning allalarini, ming yillik dostonlarimizni, o'lmas maqomlarimizni eshitsin, baxshi va hofizlarimizning sehrli qo'shiqlariga quloq tutsin, -dedi Prezident.

O'zbek tili turkiy tillar oilasiga mansub eng yirik tillardan biridir. Dunyo miqyosida bu tilda 50 millionga yaqin odam so'zlashadi.

Mustabid tuzum davrida tilimizni yo'qotishga ko'p urinishlar bo'lgan edi. Lekin xalqimiz o'z ona tilini –milliy g'ururini saqlab qoldi. Millatparvar ziyolilar, tilimiz fidoyilarining jonkuyarligi natijasida 1989-yilning 21-oktabr kuni qabul qilingan qonunga asosan, o'zbek tili mamlakatimizdada davlat tili maqomiga ega bo'ldi.

Ushbu tarixiy sanadan o'ttiz yil o'tib bu borada yana bir qutlug' qadam qo'yildi. Prezidentimiz 2019-yil 21-oktabr kuni “O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida” farmon qabul qilindi. Unga binoan 21-oktabr sanasi yurtimizda “O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'grisida” farmon qabul qilindi. Unga binoan 21-oktabr sanasi yurtimizda “O'zbek tili bayram kuni” deb belgilandi. Ona tilimiz fidoyilari, butun xalqimiz bu xushxabarni katta qarshilik bilan qarshi bildi.

Har birimiz davlat tiliga bo'lgan e'tiborini mustaqillikka bo'lgan e'tiborni mustaqillikka bo'lgan e'tibor deb, davlat tiliga ehtirom va sadoqatni, ona vatanga ehtirom va sadoqat deb bilishimiz, shunday qarashni hayotimiz qoidasiga aylantirishimiz kerak, -dedi Shavkat Mirziyoyev. Bu oliyjanob harakatni barchamiz o'zimizdan, o'z oilamiz va jamoamizdan

boshlashimiz, ona tilimizga ,urf-odat va qadriyatimizga hurmat, Vatanga mehrimizni amaliy faoliyatda namoyon etishimiz kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Yangi muhtasham “Kongress-xoll” saroyida 21-oktabr kuni o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o‘ttiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimidagi nutqidan.
- 2.Islom Karimov “Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch Toshkent “Ma’naviyat”2008